

**A. Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining 2023-yil rejasiga asosan 9 oy davomida amalga oshirilgan dolzarb vazifalar to'g'risida  
HISOBOT**

Institut Ustavining 4-bobi "Institut faoliyatini tashkil etish va boshqarish" 13-bandiga muvofiq "Vazirlikda Institut manfaatlarini ifodalash, shuningdek, Institut faoliyatiga doir hisobotlar" taqdim etish va institutning 2023-yil uchun tasdiqlangan Ish rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarish maqsadida doimiy ravishda ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan,

1. Institutda **8 ta** yo'nalishda **25 ta Xalq ta'limi tizimidagi eng dolzarb ilmiy muammolar** bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar davom ettirilmoqda.

2. Institutning ilmiy xodimlari va tayanch doktorantlari, stajyor tadqiqotchilari hamda mustaqil izlanuvchilarining **69 ta** tadqiqot natijalari nashr ettirildi (**12 ta** xalqaro jurnallarda, **42 ta** OAK e'tirof etgan jurnallarida, shundan **13 ta** xorijiy, **29 ta** respublika jurnallarida, shuningdek, **15 ta** tezis xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida).

3. "Ta'limda menejment" mutaxassisligi bo'yicha **1 nafar** mustaqil izlanuvchi, **2 nafar** stajyor-tadqiqotchi qabul qilindi. "Kattalar ta'limi" va "Ta'lim menejmenti" mutaxassisligi bo'yicha **magistraturaga jami 20 nafar** magistr qabul qilindi.

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashda **4 nafar (PhD)** va **2 nafar (DSc)** tadqiqotchining dissertatsiya himoyasi o'tkazildi.

Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori bilan **5 nafar** tadqiqotchiga dotsent ilmiy unvoni diplomi berildi.

4. Institut ilmiy Kengashining rejasiga muvofiq **5 marotaba** yig'ilish o'tkazildi. Unda **jami 25 ta** masala muhokama qilinib, **119 ta qaror** qabul qilindi.

5. Institut rejasiga asosan **8 marotaba** o'tkazilgan rektor huzuridagi ishlab chiqarish yig'ilishida **jami 25 ta** masala muhokama qilinib, **54 ta qaror** qabul qilindi.

6. **STEAM** fanlarini o'qitishni tashkil etish bo'yicha fin maktablari tajribasi hamda maktablar, o'qituvchilar va o'quvchilarni baholash tizimlarini o'rganish maqsadida Finlandiya davlatida institutning **5 nafar** yosh olimlari ilmiy stajirovka dasturini o'tab kelishdi.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi "Boshqaruvning zamonaviy usullari" maxsus kursida Samarqand, Sirdaryo, Andijon va Jizzax viloyatlari Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining **4 nafar direktorlari** malaka oshirib, sertifikatga ega bo'ldilar.

8. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarida faoliyat yuritayotgan **jami 480 nafar** professor-o'qituvchilar shundan, **124 nafari**

o'qituvchilar, **193 nafari** katta o'qituvchilar, **146 nafari** fan nomzodlari (**PhD**) hamda **17 nafari** fan doktorlari (**DSc**) bo'lib, ilmiy salohiyat **34 foizni** tashkil etdi.

9. "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasining **qaror** loyihasi tayyorlandi.

**Tajriba sinov tariqasida** (bepul) tashkil etilgan "**Menejerlik o'quv kurslari**"ga qabul qilingan nomzodlar va o'quv dasturlarini o'zlashtirgan **50 nafar** bitiruvchilarga menejerlik sertifikatlari topshirildi.

10. **8 ta kompetensiya** bo'yicha "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida Umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlari uchun **40 ta** yo'nalishlar bo'yicha individual dasturlar asosida **onlayn** malaka oshirish kurslari faollashtirildi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari uchun yaratilgan kontent materiallari, jumladan, **1098 ta ma'ruza**, **1098 ta taqdimot**, **1098 ta videodars**, **5210 ta qo'shimcha adabiyotlar**, **10 680 ta test topshiriqlar** elektron platformaga joylashtirildi.

"Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasining "Ommabop kurslar" qismiga "**Milliy o'quv dasturi mazmun va mohiyatini o'rganish asoslari**" malakasini oshirish maxsus kursi yuzasidan **jami 12573 nafar** o'qituvchilar jumladan **68 ta** videodarsdan tashqari boshlang'ich sinflar uchun joylashtirilgan **19 ta** darsliklarning multimedia asosida yangi metodikalarni o'quv jarayonida qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha yaratilgan maxsus kursni o'zlashtirdi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich **3-sinf rahbarlari** va **6-sinf "Fizika", "Biologiya" va "Geografiya"** fanlari o'qituvchilari uchun **Tabiiy fan (Science)** mazmun-mohiyati bo'yicha tashkil qilingan qisqa muddatli o'quv kurslarida, o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun yaratilgan **72 ta** videodarslar (shu jumladan ma'ruza matnlari, mavzuga oid taqdimotlar, videokurslar va har bir mavzu yuzasidan test savollari banki) "uzlms.uz" elektron platformasiga joylashtirildi. Mazkur kurslarda **97 944 nafar** o'qituvchilar o'z malakalarini oshirdilar.

11. **Respublika bo'yicha** platforma orqali **jami 10655 ta** ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan **594873 nafar** rahbar va pedagog xodimlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, **163121 nafarini (27,1%) erkaklar** va **431752 nafarini (72,9%) ayollar** tashkil etmoqda. Shundan, **Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshliqlari va bo'lim mudirlari – 141 nafar**, **metodistlari - 1697 nafar**, **ta'lim muassasalari rahbarlari - 11086 nafar**, **fan yo'nalishlari bo'yicha pedagoglar - 526521 nafar**, **ARM (kutubxona) rahbar va xodimlari – 10903 nafar**, **Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagoglari - 638 nafar**, **direktor o'rinbosarlari – 25767 nafar**, **"Barkamol avlod" bolalar maktabi to'garak rahbarlari - 1002 nafar**, **Maxsus ta'lim muassasasi tarbiyachilari - 2414 nafar** va **trenerlar - 84 nafarni** tashkil etadi.

12. Institutning malaka oshirish rejasiga asosan 1-oktabr holatiga **4097 nafar umumta'lim maktabi direktorlari, 182 nafar "Barkamol avlod"** bolalar maktablari direktorlari va **100 nafar Maxsus ta'lim muassasalari** direktorlari malaka oshirib, tegishli sertifikatga ega bo'ldilar.

**O'quv jarayoni mobaynida ichki tartiblarni buzgan** (o'qishga kelmagan, darslarda qatnashmagan) **44 nafar umumta'lim maktabi direktorlari, 15 nafar "Barkamol avlod"** bolalar maktabi direktorlari, **3 nafar Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va internatlari** ("Muruvvat" uylari) direktorlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslaridan chetlashtirildi.

13. **"ZO'R!" ("KLASS!")** loyihasining navbatdagi bosqichini amalga oshirish maqsadida **11 nafar Rossiya Federatsiyasi** metodistlari tashrif buyurdi. Loyiha doirasida sentabr – dekabr oylarida yana **14 nafar** metodistlar kelishi rejalashtirilgan.

14. **British Council** bilan **"Future English in Uzbekistan"** loyihasi doirasida **4715 nafar** ingliz tili o'qituvchilari malakasi oshirildi.

15. Institut va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (**JICA**) hamkorligida **"O'zbekistonda Yaponiya uslubidagi akademik yutuqlar test modelini joriy etish"** loyihasining amalga oshirilgan tajriba-test sinovlarining to'plangan tahliliy natijalari bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligida o'tkazilgan taqdimotda ikki yil davomida to'rt bosqichda maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirokida **matematika fanidan** o'tkazilgan test sinovi natijalari har bir bosqich kesimida tanishtirildi.

16. **"Maktabgacha va maktab ta'limini samarali boshqarishning demografik omillari"** mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Ushbu ilmiy-amaliy konferensiyada **219 nafar** vazirlik va institut xodimlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlari, doktorantlar va magistrlar ishtirok etdi.

17. **31 ta qayta tayyorlash** kurslari tashkil etildi (**762 nafar** tinglovchi). Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun professor-o'qituvchilar taqdim etgan majmualar va adabiyotlardan iborat **89 xil** turdagi (xususan, **35 ta** o'quv-uslubiy majmualar, **20 ta** adabiyotlar, **22 ta** taqdimotlar va **12 ta** BMI namunalari) materiallar arxivlangan faylda [https://t.me/Avloniy\\_ARM](https://t.me/Avloniy_ARM) ga yuklandi.

18. Umumta'lim maktab direktorlari uchun adabiyotlar ro'yxati kasbiy rivojlantirish o'quv kurslarining rejalari asosida **8 ta** - kompetensiya bo'yicha **jami 231 ta** adabiyotlar, **115 ta** - me'yoriy–huquqiy hujjatlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning - **2 ta** asarlari hamda **104 ta** - mutaxassislikka oid adabiyotlar ro'yxati elektron platformaga joylashtirildi. Shuningdek, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'zbek (lotin va kiril), qoraqalpoq va rus tillarida **1790 dona** kitob foydalanish uchun qabul qilindi.

19. Ilmiy ishlanmalar **elektron ma'lumotlar bazasida** (**87 ta yangi dissertatsiyalar, 75** turdagi **darsliklar, 200** nomdagi turli adabiyotlar).

**20. 856 ta hujjat ijrosi ta'minlandi** (*Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri buyruqlari, qo'shma qarorlar, chora-tadbirlar rejasi, Hay'at qarorlari, turli tashkilot va fuqarolardan murojaatlar*).

**21. Jismoniy va yuridik** shaxslardan kelgan **jami 40 ta** murojaatlar ko'rib chiqilgan va ariza mualliflariga asoslangan javob xatlari yuborilgan.

**(Facebook, Instagram, Telegram)** ijtimoiy tarmoqlari orqali kelayotgan murojaatlarga **"Ilmiy va pedagogik xizmatlar markazi"** mutaxassisleri tomonidan qayta tayyorlov kurslariga oid **8000 ta** murojaatlarga, shuningdek, **"O'quv jarayonini tashkil etish"** bo'limining onlinedu.uz rasmiy telegram kanalida LMS platformasiga oid murojaatlarga **jami 212000 ta** elektron murojaatlarga javob berildi.

**22. Institut faoliyati** Ommaviy axborot vositalarida **5287 marotaba** yoritildi. (*ijtimoiy tarmoqlar, televideniye, gazeta va jurnallar*).

Institutning 2023-yil uchun tasdiqlangan Ish rejasida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarish maqsadida doimiy ravishda ishlar davom ettirilmoqda.

Monitoring bo'limi  
boshlig'i



B.Umarov